

## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot)

2020-yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 209,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 62,3 mln. AQSh dollariga yoki 37,7 % ga kamaydi.


TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI  
(yanvar-may,  
mln. AQSh  
dollari)



Ma'lumot uchun: Qashqadaryo viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 86,6 mln. AQSh dollariga (43,0 % ga kamaydi) va import hajmi 123,0 mln. AQSh dollariga (33,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida –36,4 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**TASHQI SAVDO  
AYLANMASI**  
(yanvar-may,  
ming AQSh  
dollari)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Qashqadaryo viloyati, jahonning **60** dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (**27,1** %), Rossiya Federatsiyasi (**11,6** %), Turkiya (**9,2** %), Qozog'iston (**8,3** %), Eron (**6,3** %), Germaniya (**5,4** %), Afg'oniston (**5,0** %) va Hindiston (**4,2** %) qayd etilgan.

**QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-may, ming AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	56 845,4	7 584,0	49 261,4	27,1
Rossiya Federatsiyasi	24 213,7	13 479,8	10 733,9	11,6
Turkiya	19 255,8	9 756,4	9 499,4	9,2
Qozog`iston	13 336,6	10 119,0	3 217,6	6,4
Eron	13 278,5	12 728,2	550,3	6,3
Germaniya	11 381,1	22,6	11 358,5	5,4
Afg`oniston	10 376,4	10 376,4	-	5,0
Hindiston	8 895,5	259,1	8 636,4	4,2
Indoneziya	5 997,3	5 997,3	-	2,9
Qirg`iz Respublikasi	5 712,9	4 499,9	1 213,0	2,7

**QASHQADARYO  
VILOYATI BILAN  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI ENG  
YUQORI ULUSHGA  
EGA BO`LGAN  
DAVLATLAR  
(2020-yil yanvar-  
may, ming AQSh  
dollari, ulushi  
% da)**

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Qozog`iston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iz Respublikasi, Tojikiston va Afg`oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to`qqizta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (**2 745,9** ming AQSh dollari), Turkiya (**257,0** ming AQSh dollari), Eron (**12 178,0** ming AQSh dollari), Afg`oniston (**10 376,4** ming AQSh dollari), Qozog`iston (**6 901,4** ming AQSh dollari), Indoneziya (**5 997,3** ming AQSh dollari), Tojikiston (**3 615,2** ming AQSH dollari) va Pokiston (**3 217,2** ming AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan **11** ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**QASHQADARYO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
ming AQSh  
dollari)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>64 840,5</b>	<b>111 248,5</b>	<b>56 845,4</b>
Eksport	45 171,6	27 692,2	75 84,0
Import	19 669,0	83 556,3	49 261,4
Saldo	25 502,6	-55 864,1	-41 677,4
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>26 102,0</b>	<b>26 149,5</b>	<b>24 213,7</b>
Eksport	12 814,5	15 339,0	13 479,8
Import	13 287,5	10 810,5	10 733,9
Saldo	-472,9	4 528,5	2 745,9
<b>Turkiya</b>	<b>27 209,2</b>	<b>36 614,0</b>	<b>19 255,8</b>
Eksport	15 823,3	30 565,9	9 756,4
Import	11 385,9	6 048,1	9 499,4
Saldo	4 437,4	24 517,8	257,0
<b>Qozog`iston</b>	<b>15 010,1</b>	<b>28 329,7</b>	<b>13 336,6</b>
Eksport	8 950,6	13 729,9	10 119,0
Import	6 059,5	14 599,8	3 217,6
Saldo	2 891,1	-869,9	6 901,4
<b>Eron</b>	<b>7 682,1</b>	<b>30 808,2</b>	<b>13 278,5</b>
Eksport	7 455,5	29 882,5	12 728,2
Import	226,6	925,7	550,3
Saldo	7 228,9	28 956,8	12 177,9
<b>Germaniya</b>	<b>3 034,4</b>	<b>5979,1</b>	<b>11 381,1</b>
Eksport	0,1	5,7	22,6
Import	3 034,3	5 973,4	11 358,5
Saldo	-3 034,2	-5 967,7	-11 335,9
<b>Afg'oniston</b>	<b>6 101,7</b>	<b>8 278,8</b>	<b>10 376,4</b>
Eksport	6 101,7	8 255,2	10 376,4
Import	-	23,6	-
Saldo	6 101,7	8 231,6	10 376,4

**QASHQADARYO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
ming AQSh  
dollari)**


Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Hindiston</b>	<b>3 745,8</b>	<b>1 439,8</b>	<b>8 895,5</b>
Eksport	0,1	38,5	259,1
Import	3 745,7	1 401,3	8 636,4
Saldo	-3 745,6	-1 362,8	-8 377,3
<b>Indoneziya</b>	<b>11 065,8</b>	<b>5 676,4</b>	<b>5 997,3</b>
Eksport	11 065,8	5 676,4	5 997,3
Import	-	-	-
Saldo	11 065,8	5 676,4	5 997,3
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>1 186,0</b>	<b>2 278,6</b>	<b>5 712,9</b>
Eksport	725,9	2 255,3	4 499,9
Import	460,1	23,3	1 213,0
Saldo	265,8	2 232,0	3 286,9
<b>AQSH</b>	<b>2 522,2</b>	<b>2 844,6</b>	<b>5 635,8</b>
Eksport	21,7	8,8	6,5
Import	2 500,5	2 835,8	5 629,3
Saldo	-2 478,8	-2 827,0	-5 622,8
<b>Yaponiya</b>	<b>7 546,1</b>	<b>4 979,8</b>	<b>4 366,4</b>
Eksport	0,0	2,1	105,5
Import	7 546,1	4 977,7	4 260,9
Saldo	-7 546,1	-4 975,6	-4 155,4
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>668,1</b>	<b>1 646,6</b>	<b>3 862,2</b>
Eksport	191,5	179,5	115,0
Import	476,6	1 467,1	3 747,2
Saldo	-285,1	-1 287,6	-3 632,2
<b>Tojikiston</b>	<b>4 535,8</b>	<b>9 325,3</b>	<b>3 743,4</b>
Eksport	4 301,1	8 970,5	3 679,3
Import	234,7	354,8	64,1
Saldo	4 066,4	8 615,7	3 615,2

**QASHQADARYO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
ming AQSh  
dollari)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Pokiston</b>	<b>1 604,2</b>	<b>1 430,9</b>	<b>3 254,8</b>
Eksport	1 586,7	990,3	3 236,0
Import	17,5	440,6	18,8
Saldo	1 569,2	549,7	3 217,2
<b>Avstraliya</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>2 869,8</b>
Eksport	-	-	-
Import	-	-	2 869,8
Saldo	-	-	-2 869,8
<b>Italiya</b>	<b>5 782,9</b>	<b>1 547,8</b>	<b>2 002,0</b>
Eksport	-	-	-
Import	5 782,9	1 547,8	2 002,0
Saldo	-5 782,8	-1 547,8	-2 002,0
<b>Janubiy Koreya</b>	<b>42 847,2</b>	<b>4 789,4</b>	<b>1 953,3</b>
Eksport	0,7	53,5	21,4
Import	42 846,6	4 735,8	1 931,9
Saldo	-42 845,9	-4 682,3	-1 910,5
<b>Litva</b>	<b>363,3</b>	<b>11 093,3</b>	<b>1 737,1</b>
Eksport	211,7	114,6	82,7
Import	151,6	10 978,7	1 654,4
Saldo	60,1	-10 864,1	-1 571,7
<b>Shveysariya</b>	<b>82,3</b>	<b>169,4</b>	<b>1 437,0</b>
Eksport	-	-	-
Import	82,3	169,4	1 437,0
Saldo	-82,3	-169,4	-1 437,0

Viloyatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **25,5 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi o`tgan yilga nisbatan ulushi **36,0 %** ga kamaygan.

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-may oylarida kamaydi (2019-yil shu davriga nisbatan **38,2 %** ga kamaydi) va jami TSA dagi ulushi **74,5 %** ni tashkil etdi.





## QASHQADARYO VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyorlar soni **46** tani tashkil etib, ular tomonidan **86,6** mln. AQSh dollari (2019-yilning mos davriga nisbatan **43,0** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishini ta`minladi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **97,7** % ni tashkil etib, ular asosan to`qimachilik buyumlari (**13,3** %), oziq-ovqat mahsulotlari (**20,2** %, aksariyat meva-sabzavot – **84,5** %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (**18,6** %), energiya manbalari (**11,1** %), qora va rangli metall (**0,2** %) hamda boshqalar (**34,3** %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**EKSPORT TARKIBI**  
(2020-yil  
yanvar-may)



**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
EKSPORT TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-may)**

Tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>86 637,7</b>	<b>33 615,1</b>	<b>53 022,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
<b>Paxta tolasi</b>	11 555,5	-	11 555,5	13,3	-	21,8
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	17 490,1	11 807,5	5 682,6	20,2	35,1	10,7
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	16 087,7	8 828,6	7 259,1	18,6	26,3	13,7
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	206,1	206,1	0,0	0,2	0,6	0,0
<b>Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar</b>	9 659,5	2 395,1	7 264,4	11,1	7,1	13,7
<b>Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari</b>	31,5	31,5	-	-	0,1	-
<b>Xizmatlar</b>	2 029,5	1 351,9	677,6	2,3	4,0	1,3
<b>Boshqalar</b>	29 577,8	8 994,4	20 583,4	34,3	26,8	38,8

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi xizmatlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar hamda turli xil tayyor buyumlarga to`g`ri kelmoqda.

Tarkibi	2019-yilning mos davriga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>57,0</b>	<b>73,8</b>	<b>49,9</b>
shu jumladan:			
Paxta tolasi	33,2	-	33,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	46,2	69,0	27,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	70,1	59,6	89,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	72,8	43,6	93,5
Qora metallar rangli va undan tayyorlangan buyumlar	58,9 m.	147 m.	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	24,2	24,2	-
Xizmatlar	79,2	82,1	74,1
Boshqalar	73,4	140,9	60,7

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(2020-yil  
yanvar-may)**


2020-yil yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-mayiga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, kimyo vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda boshqa tovarlardan tashqari barcha tovar va xizmatlarda o'sish kuzatildi.

**EKSPORT  
TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
% da)**

Tarkibi	ulushi, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
<b>Paxta tolasi</b>	13,3	-	21,8
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	20,2	35,1	10,7
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	18,6	26,3	13,7
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	11,1	7,1	13,7
<b>Qora rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar</b>	0,2	0,6	-
<b>Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari</b>	-	0,1	-
<b>Xizmatlar</b>	2,3	4,0	1,3
<b>Boshqalar</b>	34,3	26,8	38,8


**MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-may,  
ming AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)**

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-mayda **23,2 %** dan 2020-yil yanvar-mayda **38,8 %** ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **61,2 %** ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **15,6 %**), Eron (**14,7 %** i), Afg`oniston (**12,0 %**), Turkiya (**11,3 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**8,8 %**) va Indoneziya (**6,9 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **69,3** foizni tashkil etmoqda.

**VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI,  
foizda  
(2020-yil  
yanvar-may)**




Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan etakchi bo'lgan Rossiya Federatsiyasining bir pogonaga tushishi hisobiga, Eron eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan **42** davlatdan **44** davlatga ko'paydi.

**QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may)**

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may
Rossiya Federatsiyasi	15 339,0	13 479,8	119,7	87,9	4	1
Eron	29 882,5	12 728,2	4,0 m.	42,6	2	2
Afg'oniston	8 255,2	10 376,4	135,3	125,7	7	3
Qozog'iston	13 729,9	10 119,0	153,4	73,7	5	4
Turkiya	30 565,9	9 756,4	193,2	31,9	1	5
Xitoy Xalq Respublikasi	27 692,2	7 584,0	61,3	27,4	3	6
Indoneziya	5 676,4	5 997,3	51,3	105,7	8	7
Qirg'iz Respublikasi	2 255,3	4 499,9	3,1 m.	199,5	10	8
Tojikiston	8 970,5	3 679,3	2,1 m.	41,0	6	9
Pokiston	990,3	3 236,0	62,4	3,3 m.	11	10
Ukraina	4 845,8	994,7	25,3 m.	20,5	9	11
Singapur	316,6	883,2	18,7	2,8 m.	15	12
Moldova	93,2	632,9	20,0	6,8 m.	22	13
Malayziya	429,7	433,0	-	100,8	14	14
Filippin	-	418,6	-	-	36	15
Chexiya	504,7	356,4	3,4 m.	70,6	13	16
Hindiston	38,5	259,1	43,0 m.	6,7 m.	25	17
Polsha	581,4	155,1	2,3 m.	26,7	12	18
BAA	89,8	149,4	69,0	166,4	23	19
Belarussiya	179,5	115,0	93,7	64,0	19	20

**XIZMATLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI**  
(yanvar-may,  
ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi **2 029,5** ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **2,3** % ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **20,8** % ga kamayganligi kuzatildi. So`nggi uch yilda o`shish hisobiga xizmatlarning jami eksportdagi ulushi o`sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**56,3** %) va moliyaviy (**13,9** %) xizmatlari hissasiga to`g`ri kelgan. Shu bilan birga safarlar (**8,1** %), qurilish xizmatlari (**3,5** %), va boshqa xizmatlar umumiy hajmda **18,2** % ni tashkil etgan.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **14,8** mln. dollarga yaqin qiymatli **25,0** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan **18,8** mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, **56,0** % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **9,2** mln. AQSh dollariga teng **20,2** ming tonna sabzavot, shuningdek, **5,6** mln. AQSh dollari qiymatidagi **4,8** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (**31,3** %), Rossiya Federatsiyasi (**28,5** %), Qirg'iz Respublikasi (**14,6** %), Afg'oniston (**13,2** %) va Pokiston (**10,0** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI  
(2020 yil  
yanvar-may  
ming AQSh  
dollari)**

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **17,1** % ni tashkil etdi.




**MEVA -  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARINING  
EKSPORT  
GEOGRAFIYASI  
(yanvar-may)**

Davlatlar	2019-yil yanvar-may			2020-yil yanvar-may		
	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da
Qozog'iston	7 030,2	4 359,6	13,0	8 841,7	4 634,2	31,3
Rossiya Federatsiyasi	8 053,6	2 905	8,6	10 187,9	4 212,9	28,5
Qirg'iz Respublikasi	90,5	1 388,5	4,1	1 059	2 153,2	14,6
Afg'oniston	280,7	215,8	0,6	3 357,8	1 949	13,2
Pokiston	24,0	14,6	-	1 168,5	1 476,9	10,0
BAA	31,4	89,8	0,3	49,6	147,3	1,0
Xitoy Xalq Respublikasi	51,1	55,8	0,2	101,3	103	0,7
Eron	138,0	138,0	0,4	23,0	23,0	0,2
Turkiya	2 061,3	18 587,1	55,3	22,0	24,2	0,2
Belarus Respublikasi	84,3	25,2	0,1	66,1	10,1	0,1
Iroq	213,6	210,7	0,6	20,4	20,4	0,1
Moldova	-	-	-	15,0	9,0	0,1
Ukraina	1 364,9	4 745,1	14,1	75,9	20,4	-
Latviya	-	-	-	19,6	3,5	-
Ozarbayjon	21,8	28,2	0,1	-	-	-
Bolgariya	67,5	314,2	0,9	-	-	-
Kipr	23,1	3,9	0,0	-	-	-
Gruziya	43,5	5,2	0,0	-	-	-
Boshqa davlatlar	623,7	539,4	1,5	-	-	-


\*-qiymat ifodasidan

## QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-may)

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va asbob-uskunalari (**72,7**) hisobiga to`g`ri keldi.



XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
IMPORT TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-may,  
ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2020-yil yanvar-mayda import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **61,3** mln. AQSh dollariga kamaydi va **123,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **0,02** mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORT TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-may)**

Tarkibi	ming AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>122 967,8</b>	<b>19 938,3</b>	<b>103 029,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	3 229,8	2 399,5	830,3	2,6	12,0	0,8
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	13 743,5	3 446,9	10 296,6	11,2	17,3	10,0
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	3 876,9	3 760,2	116,7	3,2	18,9	0,1
<b>Qora va rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar</b>	4 393,3	581,7	3 811,6	3,6	2,9	3,7
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	89 379,0	5 961,0	83 418,0	72,7	29,9	81,0
<b>Xizmatlar</b>	23,1	22,7	0,4	0,0	0,1	0,0
<b>Boshqalar</b>	8 322,2	3 766,3	4 555,9	6,7	18,9	4,4

Importning eng katta ulushi, jumladan, mashina va asbob-uskunalar (**29,9 %**), energiya manbalari va neft mahsulotlari (**18,9 %**) hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari (**17,3 %**) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (**81,0 %**) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (**10,0 %**), hissasiga to`g`ri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-may)**

XSST tarkibi	2019-yil yanvar-mayga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>66,7</b>	<b>52,4</b>	<b>70,5</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	34,9	36,9	30,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	54,5	37,4	64,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	97,3	98,6	68,7
Qora va Rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar	51,0	13,1	91,4
Mashina va asbob-uskunalar	75,9	97,7	74,7
Xizmatlar	122,9	15,0 m.	2,3
Boshqalar	42,7	46,9	39,7

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2019-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi **65,1** % kamaydi.

**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2020-yil yanvar-may, ulushi, % da)**

Tarkibi	2018 yil yanvar-may	2019 yil yanvar-may	2020 yil yanvar-may
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,6	12,0	0,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	11,2	17,3	10,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,2	18,9	0,1
Qora va Rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar	3,6	2,9	3,7
Mashina va asbob-uskunalar	72,7	29,9	81,0
Xizmatlar	-	0,1	-
Boshqalar	6,7	18,9	4,4

Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida **40,1 %** ulushi bilan Germaniya (**9,2 %**) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.


**TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTIDAGI  
YIGIRMATA  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
(yanvar-may)**

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O`shir sur`ati, % da		O`rni	
	2019-yil yanvar- may	2020-yil yanvar- may	2019-yil yanvar- may	2020-yil yanvar- may	2019-yil yanvar- may	2020-yil yanvar- may
Xitoy Xalq Respublikasi	83 556,3	49 261,4	4,3 m.	59,0	1	1
Germaniya	5 973,4	11 358,5	196,6	190,2	6	2
Rossiya Federatsiyasi	10 810,5	10 733,9	84,9	99,3	4	3
Turkiya	6 048,1	9 499,4	54,1	157,1	5	4
Hindiston	1 401,3	8 636,4	37,4	6,2 m.	20	5
AQSH	2 835,8	5 629,3	113,4	198,5	13	6
Yaponiya	4 977,7	4 260,9	65,9	85,6	10	7
Belarus Respublikasi	1 467,1	3 747,2	298,9	255,4	19	8
Qozog`iston	14 599,8	3 217,6	257,5	22,0	2	9
Avstraliya	-	2 869,8	-	-	48	10
Italiya	1 547,8	2 002	26,8	129,3	18	11
Janubiy Koreya	4 735,8	1 931,9	11,1	40,8	11	12
Litva	10 978,7	1 654,4	72,4 m.	15,1	3	13
Shveysariya	169,4	1437	2,1 m.	8,5 m.	37	14
Qirg`iz Respublikasi	23,3	1213	5,3	52,1 m.	41	15
Braziliya	-	852,2	-	-	49	16
Kanada	715,9	622,7	93,4	87,0	23	17
Turkmaniston	5 783,2	576,0	10,0 m.	10,0	7	18
Eron	925,7	550,3	68,0 m.	59,4	22	19
Fransiya	2122,5	390,8	2,0 m.	18,4	14	20

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi. 2020-yil yanvar-may oylari yakuni bo`yicha

Qashqadaryo viloyati tomonidan **44** davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR-  
DAVLATLAR  
DINAMIKASI  
(yanvar-may)**



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Hindiston, AQSH va Yaponiya) jami importning **80,8** % ini tashkil qiladi, bu **99,4** mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Germaniya, Rossiya, Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:75-221-44-28**